



**O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki**

Biznes kayfiyati sharhi

2026-yil I chorak



Biznes kayfiyati sharhi – O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik muhiti va bandlik bilan bog‘liq tendensiyalarni muqobil ko‘rsatkichlar orqali o‘zida ifoda etadi.



Ushbu sharh 2026-yilning I choragida mamlakatda shakllangan biznes kayfiyatini o‘rganish maqsadida 2026-yilning aprel oyida hududlarda o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida tayyorlandi. So‘rovda mamlakatning barcha hududlari to‘liq qamrab olingan bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi ikki mingdan ortiq tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ishtirok etdi. Bunda tadbirkorlik faoliyati yo‘nalishlarini kengroq qamrab olish va reprezentativlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratildi.

So‘rovnoma hududlardagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik sharoitlari va muhitiga ta‘sir qiluvchi omillar, energiya iste‘moli hajmi o‘zgarishi, yuk tashish ko‘rsatkichlari, sohalarda ishchi kuchiga bo‘lgan talab, bandlik darajasi, savdo hajmi hamda soha istiqboli bo‘yicha joriy holat va kutilmalarni aniqlashga qaratilgan savollardan tashkil topgan.

Har bir savol uchun bir nechta javob variantlari taqdim etilgan bo‘lib, ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida ulardan bir yoki bir nechtasini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Natijalar har bir javob variantini tanlagan respondentlar sonini umumiy javoblar soniga nisbatan hisoblash hamda alohida guruhlar bo‘yicha vaznli koeffitsiyentlarni qo‘llash orqali umumlashtirildi. Umumlashtirilgan ma‘lumotlar taqsimot qoidalari asosida tahlil qilinib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi.

Tahlillar mamlakatning turli hududlaridagi iqtisodiy sharoitlarni qiyosiy baholash va ulardagi o‘zgarish tendensiyalarini sifat jihatidan o‘rganish imkonini beradi.

Umumiy xulosalar

Tadbirkorlik muhiti

2026-yilning I choragi yakunlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini o'rganish natijalari respublikada biznes yuritish muhitida ijobiy tendensiyalar davom etayotganini ko'rsatmoqda. So'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarning* 64 foizi biznes sharoitlari nisbatan yaxshilanganini (*o'tgan yilning mos davrida 56 foiz*) ta'kidlagan. Mazkur ko'rsatkich so'nggi ikki yil davomida o'rtacha 50 foizdan yuqori darajada saqlanib kelmoqda va bu tadbirkorlar ishonchining barqarorligidan dalolat beradi.

Respondentlar biznes muhitidagi ijobiy o'zgarishlarni, avvalo, bank xizmatlari sifati va raqobat muhiti yaxshilanganini, litsenziya olish jarayonlari soddalashgani hamda ma'muriy aralashuvlar biroz kamaygani bilan izohlashgan. Shu bilan birga, monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi, energiya ta'minoti va bojxona tariflari bo'yicha holat o'tgan yil darajasida saqlanib qoldi.

Iqtisodiy faollik

Mazkur chorakda yuk tashish hajmlari, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab hamda ishlab chiqarish va buyurtma hajmlari oshganini ta'kidlagan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 8–10 foizga ko'paydi. Ayniqsa, buyurtmalar ko'payganini bildirganlar ulushi 11 foiz bandga oshib, 57 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich Toshkent viloyati, Navoiy, Andijon, Namangan va Xorazm viloyatlarida yaqqol namoyon bo'lib, bunga asosan ishlab chiqarish, turizm, ta'lim, umumiy ovqatlanish va qishloq xo'jaligi tarmoqlari asosiy hissa qo'shdi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan yuqori foydalanish darajasi Farg'ona va Buxoro viloyatlarida sezilarli oshgan bo'lsa, Xorazm, Andijon, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida pasaydi. Tadbirkorlar tomonidan energiya ta'minotidagi uzilishlar, soliq tizimidagi murakkabliklar, ichki talabning yetarli emasligi, avtomobillar uchun yoqilg'i narxlarining qimmatlashishi hamda aylanma mablag'lar yetishmasligi to'liq quvvatda faoliyat yuritmaslikning asosiy sabablari sifatida qayd etildi.

* So'rovda jami 2 487 nafar tadbirkor ishtirok etdi.

Bandlik

2026-yilning I choragi davomida mehnat bozorida faollik barqaror darajada shakllanib, aksariyat korxonalarda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab ortgani qayd etildi. Jumladan, I chorakda ishchi kuchiga talabi oshganini bildirgan tadbirkorlik subyektlari ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 6 foiz bandga oshib, 50 foizga yetdi.

Kelgusi choraklarda Andijon, Namangan, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talabning yuqori darajada ortishi, Jizzax, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida esa o'zgarishsiz qolishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish, qurilish, turizm va qishloq xo'jaligi sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga talab boshqa sohalarga nisbatan yuqori shakllanishi prognoz qilinmoqda.

Moliyaviy holat

Tadbirkorlar orasida so'nggi uch oy davomida qarz majburiyatlari shganini bildirgan tadbirkorlar ulushi biroz kamayib, 38 foizni tashkil etdi. Shunday bo'lsa-da, qo'shimcha kreditlarga bo'lgan talab borasidagi kutilmalarda o'suvchi tendensiyalar saqlanib qolmoqda (*respondentlarning 49 foizi kelgusida qarz majburiyatlari oshishini kutishmoqda*).

Navoiy, Namangan, Andijon va Sirdaryo viloyatlarida kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoj sezilarli oshishi kutilayotgan bo'lsa, aksincha, Farg'ona, Surxondaryo hamda Jizzax viloyatlarida ehtiyoj pasayishi kutilmoqda. Bunda, qurilish, ishlab chiqarish, maishiy xizmat, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan kelgusida kredit mablag'lariga nisbatan yuqori ehtiyoj mavjudligi bildirildi.

Istiqbollar

O'rta muddatli istiqbolda tadbirkorlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan ishonchi ijobiy saqlanib qolmoqda. 2025-yilning dastlabki choragidan buyon ijobiylik darajasi sezilarli yaxshilanib, 2026-yilning I choragida so'rovda ishtirok etgan biznes subyektlarining 71 foizi kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoitlar yaxshilanishiga ishonch bildirgan.



Toshkent shahri, Toshkent viloyati

2026-yilning I choragida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respondentlarning 60 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini baholadi. Mazkur ko'rsatkich 2025-yilning mos choragiga nisbatan 14 foiz bandga oshdi. Xususan, umumiy ovqatlanish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, kommunal xizmatlar va ta'lim sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini ta'kidlaganlar ulushi sezilarli darajada ko'paygan.

So'rovda ishtirok etgan biznes subyektlari tomonidan bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari yaxshilangani, shuningdek, raqobat muhiti, litsenziya-guvohnoma olish jarayonlari, ma'muriy aralashuvlar hamda elektr energiyasi ta'minotida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgani qayd etildi.


Tadbirkorlar tomonidan yo'l infratuzilmasi, monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi va bojxona tariflarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagani bildirildi.

Mazkur hududlarda buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmi oshganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan mos ravishda 11 va 17 foiz bandga yuqori shakllandi. Bunda, moliya, turizm, maishiy xizmat va qishloq xo'jaligi sohasi vakillarining asosiy qismi buyurtmalar hamda ishlab chiqarish hajmi oshganini bildirgan.


Shuningdek, tadbirkorlarning 53 foizi energiya iste'moli oshganini ma'lum qildi. Yuqori o'sish sur'atlari tashish, turizm, umumiy ovqatlanish va tibbiyot sohalarida kuzatildi.

Mehnat bozori ham faollashdi. Qo'shimcha ishchi kuchiga talab ko'payganini bildirganlar ulushi 16 foiz bandga oshdi. Bunda turizm, qurilish, maishiy xizmat hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning ortishi yuqori bo'ldi.


1-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



2-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



3-rasm. Iqtisodiy faollik kursatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Toshkent shahri, Toshkent viloyati

I chorakda yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 49 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Bunda qurilish, turizm va tibbiyot sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi nisbatan yuqori quvvatlarda faoliyat olib borayotgani kuzatildi.

To'liq quvvatda ishlay olmayotgan biznes subyektlari gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, soliq tizimidagi qiyinchiliklar, yuqori ijara xarajatlari, aylanma mablag' yetishmasligi hamda avtomobil yoqilg'isi narxining qimmatlashuvini asosiy omillar sifatida baholadi.


Mazkur davrda so'rovda ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlarining 60 foizi va undan ortig'i yoqilg'i va energiya iste'moli, yuk tashish, ishlab chiqarish hamda buyurtma hajmlari oshishini kutmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2025-yilning I choragida 45–50 foizni tashkil etgan. Bunda, turizm, ta'lim, maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish va qishloq xo'jaligi sohalarida nisbatan yuqori kutilmalar shakllandi.

Qo'shimcha ishchi kuchiga talabning oshishi bo'yicha kutilmalar ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 foiz bandga yuqori shakllandi. Moliya, qurilish, maishiy xizmat, ishlab chiqarish hamda turizm sohalarida kelgusida qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori bo'lishi mumkinligi qayd etildi.


Shu bilan birga, kelgusida qo'shimcha kredit resurslariga ehtiyoj mavjudligini ta'kidlagan biznes subyektlarining ulushi ham 2025-yilning mos choragiga nisbatan biroz oshdi. Kreditga bo'lgan talab, ayniqsa, qurilish, maishiy xizmat, turizm va moliya sohalarida oshishi kutilmoqda.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning 70 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos choragiga nisbatan sezilarli yaxshilandi.


4-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlar ulushi, foizda



5-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



6-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

2026-yilning I choragida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror davom etayotganini ko'rsatdi. Tadbirkorlik subyektlarining 63 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi. Ushbu ijobiy o'zgarishlar, ayniqsa, turizm, ta'lim, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sohalarida sezilarli bo'lgani qayd etildi.


Tadbirkorlar tomonidan bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganini bilan birga, raqobat muhiti, litsenziya olish jarayonlari hamda ma'muriy aralashuvlardagi ijobiy o'zgarishlar asosiy omillar sifatida ko'rsatildi. Aksincha, soliq ma'murchiligi, gaz va elektr ta'minoti hamda bojxona tariflari yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagani ta'kidlandi.

2026-yilning I choragida iqtisodiyotda ishlab chiqarish bo'yicha ijobiy muhit saqlanib qoldi. Xususan, buyurtmalar, ishlab chiqarish hamda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab oshganini qayd etgan subyektlar ulushi 50 foiz va undan yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkichlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4–5 foiz bandga oshdi.


Buyurtmalar hajmining ko'payishi asosan aloqa va axborot, tibbiyot hamda turizm sohaları hissasiga to'g'ri keldi. Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab esa ishlab chiqarish, qurilish, turizm va maishiy xizmatlar sohalarida yuqori bo'ldi.

Kredit to'lovlarida sezilarli o'zgarish kuzatilmagani qayd etildi. Kredit to'lovlari oshganini bildirgan tadbirkorlarning ulushi qurilish, turizm va hunarmandchilik tarmoqlarida nisbatan yuqori shakllandi.


7-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



8-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



9-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

Kuzatuv davrida yuqori quvvatlarda faoliyat olib borayotgan korxonalar ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 6 foiz bandga kamayib, 46 foizni tashkil etdi. Bunda turizm, qurilish va moliya sohalaridagi korxonalarining nisbatan pastroq quvvatlarda faoliyat olib borayotgani kuzatildi.

Tadbirkorlar tomonidan to'liq quvvatlarda ishlamaslikning asosiy sabablari sifatida energiya ta'minotidagi uzilishlar, soliq tizimidagi qiyinchiliklar, ichki talabning yetarli darajada emasligi, yoqilg'i-energiya mahsulotlari narxining qimmatlashishi hamda aylanma mablag' yetishmasligi qayd etildi.

So'rovda qatnashgan biznes subyektlarining kelgusida yuk tashish va ishlab chiqarish hajmlari, shuningdek, qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshishi bo'yicha kutilmalari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori shakllandi.


Respondentlarning 60 foizi kelgusi chorakda ishlab chiqarish hajmi oshishini kutmoqda. Bu, ayniqsa, tibbiyot, kommunal xizmatlar, turizm hamda aloqa va axborot sohalarida sezilarli bo'lishi mumkin.

Mehnat bozorida ham faollik yuqori bo'lishi kutilmoqda. Xususan, aloqa va axborot, ishlab chiqarish, qurilish, turizm va tibbiyot sohalarida kelgusida qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning sezilarli ortishi kutilmoqda.


Shu bilan birga, buyurtmalar hajmi va kredit to'lovlari bo'yicha kutilmalar deyarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi.

Kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yanada yaxshilanishiga ishonch bildirgan tadbirkorlarning ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 11 foiz bandga oshib, 73 foizni tashkil etdi.


10-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlar ulushi, foizda



11-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



12-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

2026-yilning I choragida Farg'ona vodiysida so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 65 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi (2025-yilning I choragida 57 foiz). Xususan, moliya, qishloq xo'jaligi, qurilish va ta'lim sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini ta'kidlaganlar ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshdi.

Tadbirkorlar tomonidan, asosan, bank xizmatlari sifati oshgani, kredit resurslarini olish kengaygani, litsenziya va guvohnoma olish jarayonlari hamda raqobat muhitining yaxshilanayotgani, shu bilan birga, ma'muriy aralashuvlar kamaygani qayd etildi. Monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi, gaz va elektr ta'minoti hamda bojxona tariflarida ijobiy baholar nisbatan kamroq darajada shakllandi. Shunday bo'lsa-da, barcha omillarda holatning yaxshilanganini qayd etganlar ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 10–15 foiz bandgacha oshgan.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlaridan qo'shimcha ishchi kuchiga talab, ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmining oshganini bildirganlar ulushi 3–5 foiz bandga ko'paygan.


Korxonalarining 56 foizi buyurtmalar hajmi ko'payganligini bildirdi. Bunda, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va hunarmandchilik sohalarida buyurtmalar hajmi sezilarli oshgan.

Tadbirkorlarning 57 foizi energiya iste'moli oshganini ma'lum qildi.


Mehnat bozorida ham ijobiy faollik saqlanib, qo'shimcha ishchi kuchiga talab kommunal xizmat, ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarida ko'paydi.

Kredit to'lovlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11 foiz bandga pastroq shakllandi. Bunda, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, ta'lim, moliya va qurilish sohalarida kredit to'lovlari oshganini qayd etgan biznes subyektlari ulushi sezilarli kamaygan.


13-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



14-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



15-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

Mazkur hududlarda yuqori quvvatlarda ishlayotgan korxonalar ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan o'zgarishsiz qolib, 51 foizni tashkil etdi. Moliya, tibbiyot, aloqa va axborot hamda tashish xizmatlari sohalari nisbatan yuqori quvvatda faoliyatini davom ettirgan.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan nisbatan o'rta yoki past darajada faoliyat yuritib kelayotgan korxonalar gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, ichki talab va aylanma mablag'larning yetarli emasligi, yoqilg'ining qimmatlashuvi hamda soliq tizimidagi qiyinchiliklarni asosiy omillar sifatida ta'kidladilar.

Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, umuman olganda, ijobiy shakllandi. Yoqilg'i va energiya iste'moli, ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmi hamda qo'shimcha ishchi kuchiga talabning ko'payishini bildirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilga nisbatan 8–10 foiz bandgacha oshdi.


So'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 68 foizi buyurtmalar hajmining oshishini kutayotganini bildirdi. Kelgusi davrda buyurtmalar hajmi oshishi asosan hunarmandchilik, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.

Mehnat bozoriga oid kutilmalarda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyojni qurilish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish sohalari yuqori baholagan bo'lsa, moliya, ta'lim, tashish xizmati, tibbiyot hamda aloqa va axborot sohalari joriy holatda saqlanib qolishini kutmoqda.


Kredit to'lovlari hajmi bo'yicha kutilmalarda o'zgarishlar deyarli kuzatilmadi.

So'rovnomada qatnashgan biznes vakillarining 73 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.


16-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



17-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



18-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

2026-yilning I choragida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror saqlanayotganini ko'rsatdi.

Biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini ta'kidlagan tadbirkorlik subyektlarining ulushi 70 foizga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 9 foiz bandga oshdi. Bunda, tibbiyot, ishlab chiqarish, hunarmandchilik, ta'lim, tashish va maishiy xizmat sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini bildirgan tadbirkorlar ulushi sezilarli ko'paygan.

Ishbilarmonlarning qayd etishicha, bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlarining ortishi, raqobat muhitining yaxshilanishi, shuningdek, ma'muriy aralashuvlar kamaygani tadbirkorlik faolligini rag'batlantirgan asosiy omillardan bo'ldi.


Soliq ma'murchiligi, energiya ta'minoti, monopollashuv darajasi va bojxona tariflari biznes kayfiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar orasida past o'rinlarda bo'lsa-da, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarida ijobiy holat kuzatilgan bo'lib, bunda buyurtma, yuk va ishlab chiqarish hajmlari ko'payganini bildirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilga nisbatan biroz oshgan.


Respondentlarning 56 foizi buyurtmalar hajmining oshganini qayd etgan. Xususan, ishlab chiqarish, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik tarmoqlarida ushbu ko'rsatkich nisbatan yuqori shakllangan.

Kredit to'lovlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi esa 6 foiz bandga pasayib, 38 foizni tashkil etdi. Hunarmandchilik, tibbiyot, moliya va qurilish sohalarida kredit to'lovlari oshganini qayd etganlar ulushi boshqa sohalarga qaraganda sezilarli past bo'ldi.


19-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyat o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



20-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



21-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

Nisbatan yuqori quvvatlarda ishlayotgan subyektlar ulushi 2025-yilning mos choragiga nisbatan 10 foiz bandga kamaydi va 47 foizni tashkil etdi. Bunda, turizm, maishiy xizmat va qishloq xo'jaligi sohalaridagi yuqori quvvatlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar ulushi sezilarli kamaygan.

Tadbirkorlar to'liq quvvatda ishlamasligiga asosiy omillar sifatida gaz va elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar, ichki talab va aylanma mablag'larning yetarli darajada emasligi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar hamda yoqilg'i narxining oshishini qayd etdilar.

Kelgusi davrdagi iqtisodiy faollik bo'yicha biznes subyektlarining ijobiy kutilmalari saqlanib qoldi. Jumladan, ishlab chiqarish va buyurtma hajmi bo'yicha ijobiy baholar o'tgan yilning mos davriga nisbatan biroz yuqori shakllandi.


Tadbirkorlarning 61 foizi kelgusida buyurtmalar hajmining ortishi mumkinligini qayd etdi. Xususan, hunarmandchilik, tibbiyot, ishlab chiqarish va moliya sohaları vakillari buyurtmalar yuqori o'sishini kutmoqdalar.

Mehnat bozorida ham faollik kelgusida saqlanib qolishi kutilmoqda. Jumladan, moliya, turizm, ishlab chiqarish va hunarmandchilik sohalarida kelgusi davrda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj nisbatan yuqori oshishi ta'kidlandi.


Yoqilg'i va energiya iste'moli oshishi bo'yicha kutilmalar esa biroz kamaydi. Xususan, qurilish, maishiy xizmat, tibbiyot va hunarmandchilik tarmoqlarida pastroq kutilmalar shakllangan.

Ushbu hududda so'rovnomada ishtirok etgan biznes subyektlarining 73 foizi (2025-yilning I choragida 66 foiz) kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyotida hamda biznes muhitida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishonch bildirdi.


22-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



23-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



24-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo

2026-yilning I choragida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror saqlanayotganini ko'rsatdi. Xususan, tadbirkorlik subyektlarining 63 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 9 foiz bandga yuqori bo'ldi.

Ishlab chiqarish, turizm, moliya va ta'lim sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etgan tadbirkorlarning ulushi sezilarli oshdi.

Tadbirkorlar bank xizmatlari, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti va yo'l-transport infratuzilmasi yaxshilanganini eng muhim ijobiy omillar sifatida ko'rsatdilar. Energiya ta'minoti, monopollashuv darajasi hamda bojxona tariflarida ijobiy o'zgarishlar bo'lganini qayd etganlar ulushi ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'tarilgan.


Ushbu chorakda iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, buyurtmalar hajmi oshganini ta'kidlagan biznes subyektlarining ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 5 foiz bandga oshib, 55 foizni tashkil etdi. Bunda ishlab chiqarish, ta'lim, maishiy xizmat va umumiy ovqatlanish sohasi vakillarining asosiy qismi buyurtmalar oshganini qayd etishgan.

Shuningdek, ishlab chiqarish, moliya hamda qurilish sohalarida elektr energiyasi va yoqilg'iga talab yuqori shakllangan.


Ishchi kuchiga ehtiyojning ortishi esa ishlab chiqarish, tibbiyot, ta'lim va hunarmandchilik sohalarida yuqori bo'lganligi ta'kidlandi.

Kredit to'lovlari ko'payganini bildirganlar ulushi esa o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 9 foiz bandga pastroq shakllandi. Xususan, moliya, savdo, qishloq xo'jaligi, turizm va hunarmandchilik sohalarida vakillarining asosiy qismi kredit to'lovlari o'zgarmaganini ta'kidlashgan.


25-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



26-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



27-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo

Korxonalarining 46 foizi yuqori quvvatlarda ishlayotganini bildirgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 foiz bandga pastroq bo'ldi.

Yuqori quvvatlarda faoliyat yuritgan korxonalar, asosan, moliya, aloqa va axborot, ta'lim, umumiy ovqatlanish hamda turizm sohalariga to'g'ri keldi. Quvvatlaridan to'liq foydalana olmagan tadbirkorlar esa, asosan, maishiy xizmat, ishlab chiqarish, savdo va qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritmoqda.


Korxonalarining past quvvatlarda ishlashiga asosiy omillar sifatida energiya ta'minotidagi uzilishlar, aylanma mablag'larning yetarli emasligi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar, yoqilg'i narxlarining oshishi va ichki talabning yetarli emasligi ko'rsatilgan.

Kelgusi chorak bo'yicha ijobiy kutilmalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan biroz ko'paygan. Jumladan, respondentlarning 60 foizi buyurtmalar hajmi o'sishini kutmoqdalar. Bu ko'rsatkich ayniqsa, qurilish, aloqa va axborot, umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish tarmoqlarida yuqori bo'lishi mumkin.


Mehnat bozorida ham faollik yuqori saqlanib qolmoqda. Respondentlarning 56 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshishini kutmoqda. Bunda, asosiy o'sish ishlab chiqarish, turizm, ta'lim va qurilish sohalarida bo'lishi ma'lum qilindi.

Jizzax va Sirdaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning 66 foizi kelgusi uch yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


28-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



29-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



30-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

2026-yilning I choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik muhiti ijobiy saqlanib qoldi. So'rovda qatnashgan tadbirkorlarning 60 foizi biznes yuritish sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi.

Xususan, ta'lim, umumiy ovqatlanish, aloqa va axborot, qishloq xo'jaligi hamda turizm sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi sezilarli ortgan.


Biznes vakillari tomonidan bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari va raqobat muhitining yaxshilanishi, shuningdek, litsenziya olish jarayonlari soddalashgani asosiy ijobiy omillar sifatida qayd etildi. Bojxona tariflari, soliq ma'murchiligi hamda yo'l infratuzilmasi kabi omillarda esa sezilarli yaxshilanish kuzatilmaganligi ta'kidlandi.

2026-yilning I choragida iqtisodiyotda ishlab chiqarish bo'yicha ijobiy muhit saqlanib qoldi. Buyurtmalar hajmi oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi 56 foizga yetdi. Ushbu ko'rsatkich turizm, ta'lim, aloqa va axborot, ishlab chiqarish hamda qurilish sohalarida yuqori bo'ldi.


Shuningdek, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha ijobiy baholar o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 9 foiz bandga oshgan. Ta'lim, turizm, aloqa va axborot hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talab nisbatan yuqori shakllangan.

Energiya iste'moli ko'payganini bildirganlar ulushi esa o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 15 foiz bandga pasayib, 45 foizni tashkil etgan. Kommunal xizmat, qurilish, hunarmandchilik va savdo tarmoqlaridagi korxonalarining asosiy qismi energiya iste'molini o'zgarishsiz qoldirishgan.


31-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



32-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



33-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

Ushbu chorakda korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi yomonlashdi. Jumladan, 35 foiz tadbirkorlar nisbatan yuqori quvvatlarda ishlayotganini ma'lum qildi (2025-yilning I choragida 51 foiz). Umumiy ovqatlanish, moliya, maishiy xizmat va qurilish sohalarida pastroq ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Quvvatdan to'liq foydalana olmayotgan tadbirkorlar energiya ta'minotidagi uzilishlar, soliq tizimidagi murakkabliklar, ijara xarajatlarining yuqoriligi, aylanma mablag'ning kamligi, avtomobil yoqilg'i narxining oshishi hamda talabning yetarli darajada emasligini ta'kidladilar.

Tadbirkorlar orasida kelgusi davrda iqtisodiy faollik bo'yicha ijobiy kutilmalar biroq pasaygan. Jumladan, energiyaga talabning ortishini kutayotgan respondentlar ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 foiz bandga pasayib 51 foizni tashkil qilgan.


Mehnat bozorida faollik saqlanib qolmoqda. Respondentlarning 53 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshishini kutmoqda. Bunda, asosiy o'sish aloqa va axborot, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, ta'lim va qurilish tarmoqlariga to'g'ri kelmoqda.

Tashish xizmatlari, umumiy ovqatlanish, aloqa va axborot, ishlab chiqarish hamda qishloq xo'jaligi sohalarida buyurtmalar hajmi ortishi bo'yicha kutilmalar ijobiy shakllangan.


Shuningdek, tadbirkorlarning 51 foizi kelgusida kredit to'lovlari oshishini taxmin qilmoqda. Sohalar kesimida qaralganda, umumiy ovqatlanish, tibbiyot, ishlab chiqarish, ta'lim va tashish xizmati sohalarida yuqori kutilmalar shakllangan.

So'rovnomada qatnashgan biznes vakillarining 67 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirdi.

34-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



35-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



36-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda

